

MAHABXORATDA ADOLAT, TAQDIR VA INSONIY BURCH TALQINI

Abdusalomova Durdonaxon

Andijon iqtisodiyot va pedagogika universiteti, o'qituvchisi

Turg'unova Gulchiroy

Andijon iqtisodiyot va pedagogika universiteti, 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20536407>

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi qadimgi hind adabiyotining yirik epik yodgorligi bo'lgan Mahabxoratning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, falsafiy mazmuni va jahon adabiyotidagi o'rinini tahlil qilinadi. Asarda markaziy o'rin tutuvchi dharma (burch va adolat) konsepsiyasi, Pandavlar va Kauravlar o'rtasidagi ziddiyat hamda Kurukshetra jangi misolida ezgulik va yovuzlik kurashi yoritiladi. Shuningdek, Bhagavad Gita tarkibidagi falsafiy qarashlar, insonning axloqiy tanlovi va ma'naviy kamoloti masalalari ilmiy jihatdan baholanadi. Epos qahramonlari obrazlari orqali adolat, sadoqat, mas'uliyat va insoniy burch kabi umuminsoniy qadriyatlarning badiiy talqini ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Mahabxorat, hind eposi, dharma, Bhagavad Gita, Kurukshetra jangi, adolat, burch, Pandavlar, Kauravlar, epik adabiyot.

KIRISH

Qadimgi Sharq xalqlari yaratgan epik yodgorliklar orasida Mahabxorat alohida o'rin egallaydi. Ushbu asar nafaqat hind xalqining milliy adabiy merosi, balki jahon madaniyati va adabiyoti taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan nodir badiiy manba hisoblanadi. O'zining ulkan hajmi, murakkab syujeti, rang-barang obrazlari hamda chuqur falsafiy mazmuni bilan Mahabxorat asrlar davomida tadqiqotchilar, adabiyotshunoslar va faylasuflar e'tiborini tortib kelmoqda.

Epos markazida insonning burchi, adolat, taqdir, hokimiyat va axloqiy tanlov kabi umuminsoniy masalalar yoritilgan. Asarda Pandavlar va Kauravlar o'rtasidagi kurash orqali ezgulik va yovuzlikning abadiy qarama-qarshiligi badiiy talqin etiladi. Ayniqsa, Bhagavad Gita qismi insonning ma'naviy kamoloti va hayotiy mas'uliyati haqidagi falsafiy qarashlarni o'zida mujassam etgani bilan ahamiyatlidir.

Bugungi kunda Mahabxorat filologik, tarixiy, mifologik va falsafiy jihatdan keng o'rganilayotgan asarlar qatoriga kiradi. Shu bois mazkur tezisdagi eposning yaratilish tarixi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari hamda unda ilgari surilgan adolat va insoniy burch masalalarini tahlil qilish maqsad qilib qo'yilgan.

ASOSIY QISM

Mahabxorat qadimgi hind adabiyotining eng yirik epik asari bo'lib, uning markazida Pandavlar va Kauravlar o'rtasidagi hokimiyat uchun kurash voqealari tasvirlanadi. Tadqiqotchilarning fikricha, epos dastlab og'zaki ijod namunasi sifatida shakllanib, keyinchalik bir necha asrlar davomida takomillashgan hamda miloddan avvalgi IV asrdan milodiy IV asrgacha bo'lgan davrda yozma ko'rinishga keltirilgan. Asar 18 ta kitob (parva) va qariyb 100 ming shlokadan iborat bo'lib, hajmi jihatidan dunyodagi eng katta epik yodgorliklardan biri hisoblanadi. Olim J.L.Brockingtonning ta'kidlashicha, Mahabxorat nafaqat badiiy asar, balki qadimgi Hindistonning diniy e'tiqodlari, siyosiy qarashlari, ijtimoiy munosabatlari va axloqiy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan madaniy ensiklopediya vazifasini bajaradi¹. Shu sababli epos qadimgi hind jamiyatining diniy, falsafiy va axloqiy qarashlarini o'rganishda muhim tarixiy-adabiy manba sifatida e'tirof etiladi.

¹ Brockington J. L. *The Sanskrit Epics*. – Leiden : Brill, 1998. – 568 p

Mahabxoratning asosiy g'oyaviy negizini dharma tushunchasi tashkil etadi. Dharma insonning burchi, adolatga sodiqligi va jamiyat oldidagi mas'uliyatini anglatadi. Asar qahramonlari o'z hayotlari davomida turli axloqiy sinovlarga duch keladilar va ularning taqdiri aynan shu sinovlardagi tanlovlari bilan belgilanadi. Shu jihatdan epos insonning ma'naviy kamoloti va axloqiy mas'uliyati haqidagi muhim falsafiy qarashlarni o'zida mujassam etadi.

Epos tarkibidagi Bhagavad Gita qismi Mahabxoratning eng muhim falsafiy bo'limi hisoblanadi. Unda Krishna va Arjuna o'rtasidagi suhbat orqali insonning hayotdagi vazifasi, burchni ado etish zarurati hamda ruhiy poklanish masalalari yoritilgan. Krishna Arjunaga har qanday sharoitda ham o'z burchiga sodiq qolish lozimligini uqtiradi. Mazkur g'oya hind falsafasining asosiy tamoyillaridan biri sifatida baholanadi².

Mahabxoratdagi qahramonlar tizimi asarning g'oyaviy mazmunini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Arjuna jasorat va ichki ruhiy kurash timsoli bo'lsa, Krishna donishmandlik va ilohiy adolat ramzi sifatida tasvirlanadi. Yudhishtira haqiqat va halollikning, Duryodhana esa hasad, manmanlik va hokimiyatparastlikning badiiy ifodasidir. Draupadi obrazi esa ayol sha'ni, matonat va adolat uchun kurash g'oyalarni mujassamlashtirganligi bilan ajralib turadi.

Asardagi eng muhim voqealardan biri Draupadining Kauravlar saroyida tahqirlanishi bilan bog'liq epizoddir. Ushbu sahna adolat va inson qadr-qimmatini masalasining yorqin ifodasi bo'lib, eposning axloqiy mazmunini chuqurlashtiradi. Draupadining o'z huquqlari va sha'nini himoya qilishga qaratilgan harakatlari jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi kurash ramzi sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotchilar ushbu voqeani Kurukshetra urushining asosiy sabablaridan biri sifatida baholaydilar. Kurukshetra jangi esa eposning kulminatsion nuqtasi hisoblanadi. Mazkur jang ikki sulola o'rtasidagi harbiy to'qnashuv bo'lishi bilan birga, ezgulik va yovuzlik, adolat va zulm o'rtasidagi kurashning ramziy ifodasi sifatida ham talqin qilinadi. Jang yakunida adolat g'alaba qozongan bo'lsa-da, muallif urushning og'ir oqibatlarini ham chuqur tasvirlaydi. Shu orqali insoniyat uchun tinchlik, adolat va ma'naviy poklikning ahamiyati ulug'lanadi³.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Mahabxorat qadimgi hind adabiyotining eng yirik epik yodgorliklaridan biri bo'lib, unda insoniyat uchun muhim bo'lgan adolat, burch, sadoqat, hokimiyat va axloqiy tanlov masalalari chuqur badiiy-falsafiy talqin etilgan. Asarning markaziy g'oyasi bo'lgan dharma tushunchasi qahramonlar taqdiri va voqealar rivojida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, Bhagavad Gita qismida ilgari surilgan insonning o'z burchiga sodiqligi, ma'naviy kamoloti va mas'uliyati haqidagi qarashlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

Eposdagi Draupadi voqeasi, Kurukshetra jangi hamda boshqa muhim epizodlar orqali adolat va zulm, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash yorqin tasvirlangan. Shu jihatdan Mahabxorat nafaqat hind xalqining madaniy merosi, balki jahon adabiyoti va falsafiy tafakkurining nodir namunasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Asar o'quvchini hayot, burch va axloqiy qadriyatlar haqida mushohada yuritishga undaydi hamda umuminsoniy g'oyalarning badiiy ifodasi sifatida yuksak qadrlanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Vyasa. Mahabharata. – Toshkent : Sharq, 2008. – 864 b.
2. Vyasa. The Bhagavad Gita. – Tomales : Nilgiri Press, 2007. – 224 p.
3. Brockington J. L. The Sanskrit Epics. – Leiden : Brill, 1998. – 568 p.

² Vyasa. *The Bhagavad Gita*. – Tomales : Nilgiri Press, 2007. – 224 p.

³ Hildebeitel A. *Rethinking the Mahabharata: A Reader's Guide to the Education of the Dharma King*. – Chicago : University of Chicago Press, 2001. – 395 p.

4. Hiltebeitel A. Rethinking the Mahabharata: A Reader's Guide to the Education of the Dharma King. – Chicago : University of Chicago Press, 2001. – 395 p.
5. Debroy B. The Mahabharata of Krishna-Dwaipayana Vyasa. Vol. 1–10. – New Delhi : Penguin Random House India, 2010–2014.

